

MUSIQA SAVODXONLIGI 1-4 SINIF DARSLIKLARINI O'QITISH METODLARI ASOSIDA O'RGANISH

Farida Uralova Ural qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Musiq ta'limi va san'at yo'nalishi 1-bosqich magistranti

Yakkabog' tumani 77-umumta'lim maktabi musiq o'qituvchisi.

ORCID: 0009-0002-0834-9330

E-mail: faridauralova45@gmail.com *Telefon:* +99891 949 95 30

Ismoilova Mahbuba Elamonovna

Ilmiy rahbar: p.f.n., prof.v.v.b.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20689033>

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1-4-sinf «Musiq» darsliklarida musiq savodxonligi mazmunining bosqichma-bosqich joylashtirilishi va uni o'qitishda qo'llaniladigan metodlar tahlil qilinadi. Har bir sinf darsligidagi musiqiy savod elementlari — ritm, lad, temp, dinamika, nota yozuvi asoslari — alohida ko'rib chiqiladi va ularni o'zlashtirishda samarali metodlar (og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, interaktiv) tavsiya etiladi. Tadqiqot 77-umumta'lim maktabi Yakkabog' tumanida olib borilgan pedagogik kuzatuv tajribasiga asoslangan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, darslik mazmuni bilan metodlarni uyg'unlashtirib o'qitish o'quvchilarning musiq savodxonligini sezilarli darajada oshiradi.

Kalit so'zlar: musiq savodxonligi, 1-4-sinf darsliklari, o'qitish metodlari, ritm, nota yozuvi, ko'rgazmali metod, amaliy metod, boshlang'ich ta'lim, musiq pedagogikasi

Abstract. This article analyzes the gradual placement of music literacy content in 1st-4th grade Music textbooks and the methods used in teaching it. Music literacy elements in each grade's textbook — rhythm, mode, tempo, dynamics, basics of musical notation — are examined separately, and effective methods (verbal, visual, practical, interactive) for mastering them are recommended. The research is based on pedagogical observation conducted at School No.77 (Yakkabog' district). Results show that combining textbook content with appropriate methods significantly increases students' music literacy.

Keywords: music literacy, 1st-4th grade textbooks, teaching methods, rhythm, musical notation, visual method, practical method, primary education, music pedagogy.

Аннотация. В данной статье анализируется поэтапное расположение содержания музыкальной грамотности в учебниках «Музыка» для 1-4 классов и методы его преподавания. Отдельно рассматриваются элементы музыкальной грамоты в учебнике каждого класса — ритм, лад, темп, динамика, основы нотной записи — и рекомендуются эффективные методы (словесные, наглядные, практические, интерактивные) для их освоения. Исследование основано на педагогическом наблюдении, проведенном в школе №77 (Яккабагский район). Результаты показывают, что сочетание содержания учебника с соответствующими методами значительно повышает музыкальную грамотность учащихся.

Ключевые слова: музыкальная грамотность, учебники 1-4 классов, методы обучения, ритм, нотная запись, наглядный метод, практический метод, начальное образование, музыкальная педагогика.

KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — o'quvchining musiqa bilan ilk tanishuvi va musiqa savodxonligi asoslarini shakllantirish davri hisoblanadi. «Musiqa» 1-4 sinf darsliklari musiqa savodxonligi mazmunini bosqichma-bosqich joylashtirib, oddiy ritmik tushunchalardan murakkab nota yozuvi elementlarigacha bo'lgan yo'lni o'z ichiga oladi. Biroq darslik mazmunini o'quvchiga samarali yetkazish uchun har bir mavzuga mos metodni tanlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Musiqa savodxonligi — mashg'ulotda beriladigan barcha bilimlarni nazariy jihatdan birlashtiruvchi faoliyat bo'lib, u faqat nota yozuvini o'rganish bilan cheklanmaydi, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida qaraladi. Shu sababli 1-4-sinf darsliklarini metodlar nuqtai nazaridan tahlil qilish, har bir bosqichga mos yondashuvlarni aniqlash dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu maqolaning maqsadi — 1-4-sinf «Musiqa» darsliklaridagi musiqa savodxonligi mazmunini tahlil qilish va har bir sinf darajasiga mos o'qitish metodlarini ilmiy asoslash, shuningdek 77-maktab tajribasida sinab ko'rilgan amaliy tavsiyalarni taqdim etish.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Sharipova G.M., Asamova D.F. va Xodjayeva Z.L.ning «Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuari» qo'llanmasida boshlang'ich sinf darsliklarida musiqa savodxonligi mazmuni «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida joylashtirilgani ko'rsatilgan.

Shuni aytib o'tishim lozimki, har bir yangi tushuncha avval amaliy tajriba — tinglash, harakat, chapak — orqali, so'ngra nazariy tushuncha sifatida beriladi.¹

Ashurov M.A. o'zining musiqa pedagogikasida o'qitish metodlarini uch guruhga ajratadi: og'zaki metodlar - tushuntirish, suhbat, ko'rgazmali metodlar - namuna ko'rsatish, rasm, kartochka va amaliy metodlar - mashq, takrorlash hamda ijro. Boshlang'ich sinflarda ushbu metodlarning uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi musiqa savodxonligini o'zlashtirishda eng yuqori natija berishi ta'kidlanadi.

Xalqaro tadqiqotchilar ham boshlang'ich musiqa ta'limida interaktiv va o'yin metodlarining ahamiyatini ta'kidlaydilar. Kodaly, Orff va Suzuki pedagogik tizimlarining tahlili shuni ko'rsatadiki, musiqa savodxonligini tanaviy harakat va ritmik o'yinlar orqali boshlash, keyin nota yozuviga o'tish o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini sezilarli oshiradi.²

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot 2024-2025 o'quv yilida Yakkabog' tumani 77-umumta'lim maktabida 1-4-sinf o'quvchilari bilan olib borilgan pedagogik kuzatuv natijalariga asoslangan.

¹ Mansurov A., Karimova D. Musiqa: 1-sinf uchun darslik. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2021

² The impact of Kodaly, Orff Schulwerk, and Suzuki: systematic review // Teaching and Teacher Education. — 2025. — Vol.148.

Tadqiqotda 1-4-sinf «Musika» darsliklarining musika savodxonligiga oid bo'limlari tahlil qilindi, har bir mavzu uchun qo'llanilgan metodlar va ularning samaradorligi kuzatildi.

Tadqiqotda quyidagi metodlardan foydalanildi: 1-4-sinf darsliklarining musika savodxonligi bo'limlarini qiyosiy tahlil qilish; 6 oylik pedagogik kuzatuv; har bir sinf uchun mos metodlarni sinab ko'rish va natijalarni qayd etish; o'quvchilar bilan suhbat va «3 savol» refleksiya usuli.

TAHLIL VA NATIJALAR

1-sinf: ritm va tovush tuyg'usining shakllanishi

1-sinf «Musika» darsligida musika savodxonligi mazmuni eng oddiy darajada — tovushlarning baland-past, uzun-qisqa, qattiq-sekin kabi qarama-qarshi xususiyatlarini farqlashdan boshlanadi. Bu bosqichda nota yozuvi haligacha kiritilmaydi, asosiy e'tibor tovushni eshitish va his qilishga qaratiladi. Bu mavzularni o'qitishda eng samarali metod — ko'rgazmali va amaliy metodlar uyg'unligi: o'qituvchi tovushni namoyish etadi baland-past ovoz bilan kuylash, yoki kuylarni ijro etish orqali eshittirish o'quvchi esa qo'l harakati bilan chapak orqali yoki sur'atlar orqali kuyni qaysi cholg'uda ijro etilganini topishi kerakligini ifodalaydi.

1-sinfda ritm bilan tanishtirish ham asosan tanaviy harakat orqali amalga oshiriladi: chapak chalish, oyoq bilan zarb berish, qadam tashlash. Bu metod o'quvchida ritm tuyg'usini notaviy ifodadan oldin tanada shakllantiradi, bu esa keyingi sinflarda nota yozuvini o'zlashtirishni osonlashtiradi.

2-sinf: oddiy ritmik formulalar va dinamik belgilar

2-sinf darsligida musika savodxonligi mazmuni kengayadi: o'quvchilar oddiy ritmik formulalar chorak va sakkizdan bir nota, 2/4 o'lchov, dinamik belgilar forte, piano bilan tanishadilar. Bu mavzularni o'qitishda kartochka metodi ayniqsa samarali: ritmik formulalar rangli kartochkalarda tasvirlanib, o'quvchilar ularni chapak orqali ijro etadilar, so'ngra notaviy ko'rinishi bilan solishtiriladi.³

Dinamik belgilarni forte-piano o'rgatishda o'qituvchi bir xil kuyni turli kuch bilan ijro etib ko'rsatadi, o'quvchilar esa farqni eshitib, qaysi belgi qo'llanilganini aniqlaydilar. Bu ko'rgazmali-eshitish metodi o'quvchida dinamika tushunchasini mavhum atama sifatida emas, balki tirik tajriba sifatida shakllantiradi. Dinamik belgilarni kartochkalar orqali ko'rsatilishi va daftarga chizib olinishi ham ularni eslab qolishiga judayam yaxshi foyda beradi.

3-sinf: nota yozuvi asoslari va lad tushunchasi

3-sinf darsligida o'quvchilar nota yozuvi bilan yaqindan tanishadilar: nota chizig'i, tovushlarning nomlari do, re, mi, fa, sol, lya, si kabi tovushlarni hamda major va minor lادلari haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Bu murakkab mavzularni o'qitishda «aks-sado» metodi qo'llaniladi: o'qituvchi qisqa ohang chaladi yoki kuylaydi, o'quvchilar uni takrorlaydilar, so'ngra nota yozuvida ko'rsatiladi.⁴

³ Sharipova G.M., Asamova D.F., Xodjayeva Z.L. Musika o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuari. — Toshkent: TDPU, 2014. — B.85-104.

⁴ Mansurov A., Karimova D. Musika: 1-sinf uchun darslik. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2021

Major va minor ladlarini farqlashda taqqoslash metodi samarali: bir xil ohang ikki xil ladda ijro etilib, o'quvchilardan kayfiyat farqini quvnoq-mungli aniqlash so'raladiva buni aniqlashda eng oson va samarali usul stekerlardan foydalanish va guruhlariga bo'linib harakat qilish foydali bo'ladi.

Bu metod o'quvchida nazariy bilim lad tushunchasi bilan emotsional idrok kayfiyat farqi o'rtasida bog'liqlik o'rnatadi, bu esa musiqa savodxonligining chuqur o'zlashtirilishiga xizmat qiladi.

4-sinf: musiqa shakllari va janrlar

4-sinf darsligida musiqa savodxonligi mazmuni yanada kengayadi: oddiy musiqa shakllari bir qismli, ikki qismli, kupletli, musiqiy janrlar ashula, raqs, marsh va milliy cholg'ular haqida tushunchalar beriladi.

Bu mavzularni o'qitishda guruhli loyiha metodi tavsiya etiladi: o'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, har bir guruh ma'lum bir janr masalan, marsh misolini tanlab, uning ritmik va dinamik xususiyatlarini tahlil qiladi va sinfga taqdim etadi.⁵

Milliy cholg'ular bilan tanishtirishda ko'rgazmali namoyish metodi qo'llaniladi: imkon bo'lsa, qashqar rubobi yoki dutor sinfga olib kelinib, o'quvchilar cholg'uni ko'rib, ovozini eshitadilar. Bu metod 4-sinf darsligidagi nazariy ma'lumotni amaliy tajriba bilan boyitadi va o'quvchida milliy musiqa merosiga qiziqishni uyg'otadi.

Kuzatuv natijalari

6 oylik pedagogik kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdi: har bir sinf darajasiga mos metod qo'llanilganda o'quvchilarning musiqa savodxonligi ko'rsatkichlari sezilarli oshdi. 1-sinfda ritm farqlash ko'rsatkichi 65%dan 91%ga, 2-sinfda ritmik formulalarni to'g'ri ijro etish 58%dan 87%ga, 3-sinfda nota nomlarini bilish 52%dan 84%ga, 4-sinfda musiqa janrlarini farqlash 61%dan 93%ga ko'tarildi.⁶

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, 1-4-sinf «Musiqa» darsliklaridagi musiqa savodxonligi mazmuni izchil va bosqichma-bosqich qurilgan bo'lib, har bir bosqich oldingi bosqichga tayanadi.

Biroq darslik mazmunining o'zi yetarli emas — uni o'quvchiga yetkazish uchun har bir bosqichga mos metod tanlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. 1-sinfda tanaviy-harakatli metodlar, 2-sinfda kartochka va ko'rgazmali metodlar, 3-sinfda aks-sado va taqqoslash metodlari, 4-sinfda guruhli loyiha va namoyish metodlari eng samarali natija berdi.

Bu metodlarning umumiy tamoyili — nazariy bilimni amaliy tajriba bilan birlashtirish.

Sharipova G.M. ta'kidlaganidek, musiqa savodi «faqatgina nota yozuvlarini o'rganishdan iborat bo'lib qolmay, balki o'quvchilarning umumiy musiqiy bilim doirasini shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi vosita sifatida» qaralishi lozim.

⁵ Ashurov M.A. Musiqa pedagogikasi: darslik. — Andijon: Omadbek print, 2026. — B.142-160.

⁶ The impact of Kodaly, Orff Schulwerk, and Suzuki: systematic review // Teaching and Teacher Education. — 2025. — Vol.148.

Shu sababdan 1-4-sinf musiqa o'qituvchilari darslik mazmunini mexanik tarzda o'tish o'rniga, har bir mavzuga mos metodni tanlashga alohida e'tibor berishlari tavsiya etiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

1-4-sinf «Musiq» darsliklarida musiqa savodxonligi mazmuni «oddiydan murakkabga» tamoyili asosida izchil joylashtirilgan: 1-sinfda tovush va ritm tuyg'usi, 2-sinfda oddiy ritmik formulalar va dinamika, 3-sinfda nota yozuvi va lad, 4-sinfda musiqa shakllari va janrlar. Har bir bosqichga mos metod tanlash o'zlashtirish sifatini sezilarli oshiradi: 1-sinfda — tanaviy-harakatli metodlar; 2-sinfda — kartochka va ko'rgazmali metodlar; 3-sinfda — aks-sado va taqqoslash metodlari; 4-sinfda — guruhli loyiha va ko'rgazmali namoyish metodlari. 6 oylik kuzatuv natijasida barcha sinflarda musiqa savodxonligi ko'rsatkichlari 25-32 foizga oshdi, bu metod va darslik mazmunining uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi samaradorligini tasdiqlaydi.

Tavsiyalar: musiqa o'qituvchilari uchun har bir sinf darajasi bo'yicha metodik xarita ishlab chiqish; pedagogika institutlarida boshlang'ich sinf musiqa o'qitish metodikasi kursini kuchaytirish; darslik metodik qo'llanmalariga amaliy metod namunalari kengroq kiritish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Davlat ta'lim standarti. – Toshkent: Xalq ta'limi vazirligi, 2017.
2. Ashurov, M. A. Musiqa pedagogikasi: darslik / M. A. Ashurov. – Andijon: Omadbek print, 2026. – B. 142–160.
3. Begmatov, S. Musiqa: 4-sinf uchun darslik / S. Begmatov. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2018.
4. Mansurov, A. Musiqa: 1-sinf uchun darslik / A. Mansurov, D. Karimova. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 2021.
5. Sharipova, G. M. Musiqa o'qitish nazariyasi, metodikasi va maktab repertuari / G. M. Sharipova, D. F. Asamova, Z. L. Xodjayeva. – Toshkent: TDPU, 2014. – B. 85–104.
6. Soipova, D. Yu. Musiqa o'qitish nazariyasi va metodikasi / D. Yu. Soipova. – Toshkent: O'zDK, 2009. – B. 50–68.
7. Uralova, F. U. Qashqar rubobining kelib chiqishi va rivojlanish bosqichlari / F. U. Uralova // *Modern Science and Research*. – 2025. – Vol. 4, Issue 12. – B. 643–647. – DOI: 10.5281/zenodo.17983665.
8. The impact of Kodaly, Orff Schulwerk, and Suzuki: systematic review // *Teaching and Teacher Education*. – 2025. – Vol. 148.